XALQ DEPUTATLARI NURAFSHON SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 14-oktabr VI-100-93-10-213-K/24 Nurafshon shahri

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Nurafshon shahridagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga asosan geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 19-apreldagi yig‘ilish bayoni va bayonnoma bilan tasdiqlangan ekspert xulosasi, Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 26-apreldagi 1/12-4-2058-sonli hamda “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha shahar komissiyasining 2024-yil 6-apreldagi 1/7-4-58-sonli yig‘ilish bayonnomalarini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Nurafshon shahri Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shaharkomissiyasi raisining o‘rinbosari M.Shoismanovaning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 19-apreldagi yig‘ilish bayoni va bayonnoma bilan tasdiqlangan ekspert

xulosasiga asosan shahardagi 4 qabriston nomi qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

3.Shahar obodonlashtirish boshqarmasi, shahar bosh imom xatibi 1 oy muddatda shahardagi mavjud qabristonni ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarini o‘rnatish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha shahar komissiyasi (M.Shoismanova)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror “Mash’al” ijtimoiy-siyosiy gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Usmonov) hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisi o‘rinbosari (M.Shoismanova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  KLICHXANOV ILXOM MAXMUDJONOVICH

Xalq deputatlari Nurafshon shahri
Kengashining
2024-yil 14-oktabrdagi
VI-100-93-10-213-K/24 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Nurafshon shahridagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida qaror ilovasi

T/r	**Geografik obyektning turi**	**Joylashgan o‘rni**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Geografik obyektga berilgan nomi yoki qayta nomlanishi**	**Ekspert komissiyasining xulosasi**
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1	Qabriston	BirlikMFY	Mahmud ota qabristoni	Mahmudota qabristoni	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Qabriston	Oppoq MFY	Ismat ota qabristoni	Ismatota qabristoni	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Qabriston	Dehqonobod MFY	Yalang‘och ota qabristoni	Yalang‘ochota qabristoni	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	Qabriston	Qumariq MFY	Chaqaloqlar qabristoni	Go‘dakmozor qabristoni	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.